

8-MART - XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 9 (67278)
2020-yil 2-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limi hamda O'zbekiston bolalar va o'smirlarning «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida

«BIR MAKON – BIR YO‘L» MENING QALBIMDA»

mavzusida bolalar o'rtasida rasmlar
ko'rik-tanlovi o'tkaziladi.

Tanlovda 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar yashash joyidan qat'iy nazar, respublikamizning barcha viloyatlaridan ishtirok etishlari mumkin. Tanlovga qalam, akvarel va moybo'yoqlarda chizilgan rasmlar qabul qilinadi.

Tanlovga yuborilgan materiallar qayta ishlanmaydi va qaytarilmaydi.

Ishlarni qabul qilish 27-fevraldan – 27-martgacha amalga oshiriladi.

Tadbir so'ngida tashkilotchilar tomonidan g'oliblar uchun diplomlar, qimmatbaho sovg'alar topshiriladi.

Eng yaxshi ishlar tashkiliy qo'mitaning veb-saytlarida e'lon qilinadi, shuningdek, Farg'ona san'at maktablarining birida ko'rgazma zalida namoyish etiladi.

Materiallar Farg'ona shahar, Sohibqiron Temur ko'chasi 28-uyda joylashgan Farg'ona viloyati Jurnalistlar ijodiy uyushmasida qabul qilinadi.

Muallif o'zi haqidagi ma'lumotlarida ismi, familiyasi, yashash manzili, telefon raqami hamda elektron pochtasini ko'rsatishi kerak.

Ma'lumot uchun telefon raqami: (73) 226-51-92



Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2020-yilni «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilinishi yosh, navqiron avlodni ham juda ruhlantirib yubordi. Chunki azaldan ilm, bilim, ma'rifat, ma'naviyat, madaniyatni qadrlab kelgan xalqimiz farzandlarini bolalikdanoq ilmli, ma'rifatli bo'lishga, ko'proq o'qish, izlanishga undab kelgan. Zero, ma'rifatli inson aqlan yetuk bo'ladi, teran fikrlaydi. Shu bois ham doimo el ardog'ida, hurmatida bo'ladi.

ILM MA'RIFATDIR, YUKSAK HURMATDIR

Yurtimizda tug'ilib, kamol topib, o'zining bilimi, tadqiqot-u olam-shumul kashfiyotlari bilan dunyoda nom qozongan – Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, al-Farg'oni, Mirzo Ulug'bek, shoirlardan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalimiz shunday oliy maqomlarga tinimsiz o'qish, izlanish, bilim olish tufayli erishganlar.

Ilm-u ma'rifatning inson hayoti uchun qanchalik muhim omil ekani borasida ulug' allomalarimiz, buyuk insonlarning ajoyib fikrlari, o'g'itlari borki, bularni o'rganish har birimiz uchun koni foyda. Masalan, mashhur olim, «Qutadg'u bilig» asarining muallifi, turkiy xalqlarning faxri Yusuf Xos Hojib ilm haqida shunday deydi:

**«Uquv qayda bo'lsa – ulug'lik bo'lar,
Bilim qayda bo'lsa – buyuklik bo'lar».**

Yoki butun hayoti davomida insoniylik, ilm, ma'rifatni kuylab o'tgan ulug' bobolarimizdan biri, mumtoz adabiyotimizning iste'dodli vakili, shoir Zokirjon Furqatning quyidagi misralarini bir eslab ko'raylik:

**«Ko'ngillarning sururi ilmdandir,
Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandir.
Kerak har ilmdan bo'lmoq xabardor,
Bo'lur har qaysisi o'z vaqtida darkor».**

Siz-u biz baxtli insonlarmiz, chunki jonajon O'zbekistonimizda o'qish, ilm olish, ma'rifatli bo'lish uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda hurmatli Prezidentimizning kitob mutolaasi hamda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan ishlardan xabardorsiz. Ana shu omillar siz yoshlarni ilmli, ma'rifatli bo'lib voyaga yetishingizda muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilishi, tabiiy.

Aytilganlardan xulosamiz shuki, har bir inson jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi, obro'li, e'tiborli bo'lishi uchun bilimli bo'lishi kerak. Buning uchun esa, ko'p o'qishimiz, va o'z ustimizda jiddiy ishlashimiz talab etiladi.

Yusufjon HAMDAMOV,
filologiya fanlari nomzodi

Sayyora QODIROVA

MUKOFOTGA NOMZOD EMAS, MUNOSIB AVLOD BO'LING!

9-sinfda o'qiyotganimda ustozlarim meni Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga nomzod etib ko'rsatishganidan quvonib ketgandim. Bu xushxabarni onam buvijonimga yetkazar ekanlar, «nabirangiz shu mukofotni olishi uchun nima qilish kerak ekan-a?» deb so'radilar. Chunki buvim San'at Mahmudova uzoq yillar mobaynida shoira Zulfiyaxonim bilan «Saodat» jurnalida yonma-yon faoliyat yuritgan edilar.

Buvijonim mening intilishlarim, a'lochi-yu faol o'quvchi ekanimdan mamnun bo'lsalar-da, onamning gaplariga boshqacha munosabat bildirdilar:

– Bu mukofotga nomzod bo'lganingni o'zi katta yutuq. Ammo hali bu nufuzli mukofotga munosib emassan. Endigina respublika nashrlarida bor-yo'g'i ikki-uchta maqola va she'rlaring chiqqa boshlagan bo'lsa?! To'g'rimi, nima deding?

– To'g'ri, mayli buvijon, siz nima desangiz shu-da! Bir nimani bilmasangiz aytarmidingiz, – dedim ularni quchib.

Ko'rik-tanlov o'tkaziladigan mavsum ham kelib, men tuman va shahar bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tdim. Ammo respublika bosqichida iqtidorli, ijodkor tengdoshlarimni ko'rib, ochig'i ularga tan berdim. Buni qarangi, o'sha yili Toshkent shahridan g'oliblik mahallamizda yashovchi, ixtisoslashtirilgan maktabda o'qiydigan dugonamga nasib etdi. Shunda onam buvijonimga yana so'z qotdilar:

– Mana, ko'rdingizmi, o'sha qo'shnimizning qizidan nabirangiz kam emasdi. Juda bo'lmaganda sizning hurmatingiz bor edi, axir. Shoiraning eng sevimli shogirdlaridan biri bo'lsangiz, – dedilar.

Shunda San'at buvim bizga ustoz Zulfiyaxonim haqida ko'p va xo'p so'zlab berdilar. Sen ayol sifatida odobing, nazokating, mehnating bilan sadoqat ramzi bo'lgan bu shoiraga o'xshashga harakat qilsang, men rozi, negaki, ustozimning ruhini shod qilgan bo'lasan, deb uqtirdilar. Buvijonim Zulfiyaxonimni shunday hurmat qiladilarki, uning nomi bilan ataladigan mukofotga nomzod emas, avvalo, munosib avlod bo'lishimizni istaydilar.

Har yili bahor fasli kirib kelishi bilan buvijonim ustozlarini xotirlab menga shoiraning ibratli fazilatlarini haqida so'zlab berganlarida, ko'z o'ngimda baland bo'yli, ko'rkam, jiddiy, mehribon, lo'bar bir ayol siymosi gavdalanaveradi...

Yurtimizga yana fasllar kelinchagi – bahor kirib keldi. Sizni bahoriy kunlar bilan qutlayman. Bu go'zal faslni ayollar, qizlarga qiyoslagim keladi. G'uncha labidagi shabnam kabi sof, ochilishga uyaliygina turgan lola yanlig' hayoli, nafis kapalakdek latif bo'lishingizni tilayman!

ILK QADAMNING CHEKSIZ QUVONCHI


Maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning hayrat to'la ko'zlarida ilmga chanqoqlikni ko'ramiz.

Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 29-umumta'lim maktabida o'tkazilgan «Savodxonlik bayrami»da maktabning 1-«V» sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

O'sha kuni jajji o'g'il-qizlar hayotida unutilmas kun bo'ldi. Hazrat Navoiy bobomiz ta'biri bilan aytganda:

**«Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila».**

Sinf rahbari Manzura Murodillayeva har bir o'quvchisiga mos harflarning tilidan she'r yozib bergandi. O'quvchilar uni yod olib, ko'tarinki kayfiyatda ifodali qilib aytib berishdi. Birinchi sinf o'quvchilarining ilk chiqishidan quvongan maktab direktori Turdiquil Hasratov jajji o'quvchilarning ilk qadami qutlug' bo'lishini tiladi.



Ozoda TURSUNBOYEVA

BU QIZIQ!

O'QIGANIMIZNI O'RTOQLASHAYLIK!

Biz bolalarni doim nima, qachon, qayerda kabi savollar qiziqtiradi. Bu savollariga turli kitoblarni o'qish orqali o'zimiz ham javob topishimiz mumkin ekan.



Yaqinda buvijonim menga sovg'a qilgan kitoblarni o'qib, quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldim.

Bilasizmi, metro birinchi bo'lib, Angliya poytaxti Londonda 1863-yilda qurilgan ekan. Eng birinchi avtomobilni esa Karl Bens ixtiro qilgan bo'lib, u mashinaning tezligi soatiga 16 km bo'lgan ekan. Keyingi ma'lumot xalqaro tillar haqida. Nima uchun xalqaro til deyilishini, ular qaysi tillar ekanini bilasizmi? Ko'p sonli insonlar foy-

dalanadigan tillar xalqaro tillar hisoblanadi. Bizning davrimizda ingliz, fransuz, ispan, rus, arab, portugal va nemis tillari xalqaro tillar sirasiga kiradi.

Aziz do'stlarim! Siz-chi, qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilasiz? Keling, bilanlarimiz bilan o'rtoqlashamiz!

Shahriyor BAHODIROV,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
274-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

**DIREKTOR
OCHIQ DARS O'TDI**

Matematika va informatika fanlari oyligi bizning maktabimizda ham juda qiziqarli tarzda o'tdi.

Maktabimiz direktori Zulfiya opa Sobirova matematika fani o'qituvchisi. U kishi rahbar bo'lishlariga qaramay, fan oyligi davomida ochiq darslar, 5-8-sinflar o'rtasida savol-javob kechasi, 8-sinf o'quvchilari o'rtasida «O'yla, izla, top!» tadbirini o'tkazdilar.

Ayniqsa, 8-sinf o'quvchilari orasida tashkillashtirilgan ochiq darsda ustoz interfaol usullarni qo'llab, biz shogirdlariga o'rnak ko'rsatdilar. Biz o'qituvchi va o'quvchilar ana shunday rahbarimiz, fidoyi ustozimiz borligidan faxrlanamiz.



Maktabimizning matematika bilimdonlaridan biri – 8-sinf o'quvchisi Niginabonu Nasriyeva tumanimizdagi 5-DIUM hamda Italiyaning PIZA Universiteti hamkorligida o'tkazilgan «Matematika ochiq olimpiadasi»da ishtirok etib, 1-o'rinni egalladi.

Ma'rifat RASHIDOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
51-umumta'lim maktabining matematika va informatika fani o'qituvchisi

MENING ERTAKLARIM

Yaqinda Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan «Men eshitgan ertaklar» tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlovning e'lonini o'qiganimda men ham ishtirok etsam qanday bo'larkin, deb o'ylab qoldim va yangi ertak yozishga kirishdim. «Oltin ketmon» nomli she'riy ertagimga xulosa yozar ekanman, undagi qahramonlarim bilan birga yashay boshladim. Qahramonlarning quvnoq sarguzashtlari tugashini sira istamas edim.

Shunday qilib, ertakni yozib bo'ldim-u, ustozim, sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi bobo To'xtaboyevga qo'ng'iroq qildim. Ovozimni eshitgan bobojonim:

– Sirdaryodan Yorqinjonmisan, bolam? – dedilar.

Salom-alikdan so'ng ularga maqsadimni aytdim:

– Ertaklar tanlovida qatnashyapman, oq fотиha bering!

– Barakalla, ertak yozgan boladan yomonlik chiqmaydi. Shunday ekan, yuzing yorug' bo'lsin, bolam! – dedilar ustoz.

Telefon orqali ustozdan shu qadar qimmatli maslahatlar oldimki, ularga Janni



Rodarining «Telefonda aytilgan ertaklar» turkumi ham teng kela olmasa kerak, menimcha. Tanlov javobini intizorlik bilan kuta boshladim. Bu orada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Men muallifman» tanlovining Respublika bosqichida hikoya yo'nalishida 3-o'rinni egallaganim haqidagi xabarni eshitdim. Taqdirlash marosimiga Toshkentga bordik. O'zbekiston xalq shoiri, uyushma raisi Sirojiddin Sayyidning qo'lidan diplom va mukofotni olib, o'z o'rnimga o'tirishim bilan telefonimga xabar keldi. «Men eshitgan ertaklar» tanlovida mening ertagim 1-o'ringa loyiq topilibdi. Shu onda quvonchimning chegarasi yo'q edi. Qo'shaloq

omad, deb shuni aytishsa kerak-da! Respublika bolalar kutubxonasi tomonidan diplom va noutbuk bilan taqdirlandim. Xullas, ertaklar – yaxshilikka yetaklar deyilganidek, bolalar adabiyoti yo'nalishidagi harakatlarim meni faqat va faqat ezguliklar sari undamoqda. Shu o'rinda, barcha tengdoshlarimni ijodkorlikka, ko'proq kitob o'qishga chorlab qolaman. Zero, biz kelajakning Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon va Janni Rodarisi bo'lishimiz kerak.

Yorqinjon HAYITBOYEV,
Sirdaryo viloyati,
Mirzaobod tumanidagi
15-umumta'lim
maktabining 11-sinf
o'quvchisi

**YANGILANISHDAN
TO'XTAMANG, DEYMAN!**

«Tong yulduzi»ni o'qir ekanman, uning har bir sahifasiga e'tibor qaratanman. Bugun ham o'z takliflarimni bildirmoqchiman.

Bir kuni uyimizga do'stlarim kelishdi. Dars stolim ustidagi gazetalarini ko'rib, uni varaqlay ketishdi. Ular ko'proq sarlavhasi qiziqarli maqolalarni o'qib, boshqotirmalarga qiziqish bildirishdi. Men esa tengdoshlarim «Tong yulduzi»ning har bir sahifasini katta qiziqish bilan o'qishlarini istayman. Buning uchun esa yaqinda ushbu

**Men
bugun sevimli
nashringa maktabim
haqida emas, gazetaga bir
nechta takliflarim haqida
yozib yuborayapman.**

nashrda berilgan komikslarni ko'proq tayyorlanishini so'ragan bo'lar edim. Yana gazetada turli mavzular yuzasidan o'quvchi-yoshlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

Unda faol ishtirok etganlar rag'batlantirib borilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Odiljon SATTOROV,
Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi
19-umumta'lim maktabining
8-«A» sinf o'quvchisi

KASBIM FAXRIMGA AYLANADI

o'quvchilarning shiori shunday bo'ldi.

Kasb tanlashga yo'naltirish, hunar o'rganishga bolalikdanoq qiziqish, kim bo'lishi haqida orzu qila olishi o'quvchi uchun muhim ahamiyatga ega.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 258-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulchehra Asqarova 2-«A» sinf o'quvchilari bilan «Kasbim – faxrim» tadbirini o'tkazishda ham yuqoridagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Unda ota-onalar, o'qituvchilar ishtirok etib, bolajonlar ijrosida «Ona yurt o'yini», «Non yopganda», «Lazgi» qo'shiqlariga ijro etgan raqslarini ko'rib zavqlandilar. Turli kasblarni she'riy tarzda ifodalab berishdi.

– Bugungi tadbir bolajonlarni mehnatkashlikka, halollikka ham o'rgatadi, – deydi Roziyaning buvasi Abduvosif Abdusalomov.

Shuningdek, ota-onalardan Sabohat Hamidova, Vasila Abdullayevalar ham so'zga chiqib, farzandlarimiz qanday kasbni egallashlaridan qat'iy nazar, oila, mahalla va ona yurtiga nafi tegadigan inson bo'lishlari lozimligini ta'kidladilar.



Eng quvonarli, o'quvchilar bugungi tadbirda «Tong yulduzi» gazetasida chop etilgan she'rlardan foydalanishdi.

Mahmuda VALIYEVA

ISHTIYOQIMIZNI OSHIRGAN TO'GARAK

Har kuni maktabim tomon oshiqar ekanman, bir-biridan qiziqarli darslar va to'garaklardagi mashg'ulotlarda sinfdoshlarim bilan qiladigan yangidan-yangi tashabbuslarimiz rejasini tuzaman.

Aslida, bizlarni ruhlantiradigan, qiziqishimizni orttiradigan aziz ustozlarimizdir. Ayniqsa ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Fotima opa Mumisheva

va Bobur asarlari o'zbek xalq ertaklari asosida sahna ko'rinishlari tayyorladik. To'garagimiz rahbari bizga mos rollarni taqsimlab beradilar. Ustozimiz «Husnixat» to'garagini ham tashkil qilganlar. Bu to'garak mashg'ulotlarida chiroyli yozish bo'yicha bellashamiz.

Shu so'lim qishlog'imizga o'zga-chacha sepini yoyadigan bahorning betakror ayyomiga, sumalak sayllarimizga tashrif buyursangiz, iqtidorimizga, iste'dodimizga o'zingiz baho berasiz.



tashkil etgan drama to'garagini juda yaxshi ko'ramiz. Shu kungacha buyuk bobokalonlarimiz Navoiy

Aida ZAYIDBEKOVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi
47-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

Shahnoza BOZOROVA,
Jizzax shahridagi 22-DIUM
o'qituvchisi

MAKTABIMIZ BAG'RIGA QAYTAMIZ

Zamonaviy ko'rinishdagi, barcha sharoitlarga ega maktabda o'qishni qaysi o'quvchi istamaydi, deysiz?! «Zamonaviy maktab» loyihasi asosida bir qancha umumta'lim maktablarini qurish, ta'mirlash rejalashtirilgan.



Bu omadli o'quv dargohlari safiga jonajon maktabimiz ham qo'shilgani bizni quvontirdi. Maktabimiz rahbari Diloru Jo'rayevaning aytishlaricha, har bir fan xonalari o'ziga xos tarzda jihozlanayotgan ekan. Ayni paytda, biz tumanimizdagi boshqa bir maktabda tahsil olmoqdamiz. Ammo sanoqli kunlardan so'ng qadrdon maktabimiz bag'riga qaytamiz. Sinf rahbarimiz La'lixon Abduljalilova meni sevimli gazetamning yosh

muxbiri ekanligimni yaxshi bilganlari bois, hozirdanoq maktabimizning ochilish marosimi haqida xabar yozishimni tayinladilar. Demak, mening gazetaga yo'llaydigan xabarlarim hali oldinda.

Shahzoda TO'LQINOVA,
Toshkent shahar, Yashnobod
tumanidagi 255-umumta'lim
maktabining 8-«A» sinf
o'quvchisi

Kundalik-reyting daf-tari o'quvchining yuzi, ko'zgidagi aksidir. U sinf rahbari va ota-ona o'rtasi-da muloqot vazifasini o'taydi.

O'QUVCHINING KO'ZGUDAGI AKSI

Biz ko'pincha ota-onalar majlisida «Nega birinchi sinflarda kundalik daftar yuritilmaydi? Nima uchun ularning o'zlashtirishi va xulqi baholab borilmaydi?» kabi savollarni eshitamiz. Axir, kichkintoylar ham yuqori sinf o'quvchilari kabi ustozlardan hamda ota-onalardan maqto'v eshitishni xohlashadi-ku, deyishadi. Shunda biz bolajonlarning yoshini hisobga olinishini ota-onalarga atrof-licha tushuntiramiz. Ayrim o'quvchilar shoshma-shosharlik qilib kundalik daftar sahifalarini to'lg'azganda «takrorlash», «masala yechish» kabi so'zlar bilangina cheklanishadi. Aslida esa kundalik daftarga o'quvchi tomonidan uyga vazifalar aniq qayd etib borilmog'i lozim.

O'quvchilik davrimizda ustozimiz har haftaning oxirida eng ko'p «a'lo» baho olgan o'quvchining kundaligiga «Ota-onangga rahmat, balli!», «Chiroyli husnixating tahsinga loyiq» kabi jumalarni yozib qo'yardi. Bundan ta'sirlanib, yanada yaxshi o'qishga harakat qilardik.

Kundalik-reyting daf-tari o'quvchining maktabda o'tadigan har bir kuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat hamdir, desak to'g'ri bo'ladi.

VAZIR YOSH USTOZLAR BILAN UCHRASHDI



Gazetamiz orqali yangiliklarni kuzatib borayotgan ziyarak o'quvchilarimizga yaxshi ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov har oyda «Vazir va yoshlar» uchrashuvini o'tkazib kelmoqda. Bu galgi ana shunday tadbir poytaxtimizning Sergeli tumanida yangi barpo etilgan 329-umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi.



Zohira NISIBOVA olgan suratlari

Uchrashuv bahona mazkur ta'lim maskaniga tashrif buyurgan mehmonlar zamonaviy ko'rinisdagi sinf xonalarini ko'zdan kechirdi. O'ziga xos jihozlangan yo'laklarning o'ziyoq yaqin kunlarda bu yerda tahsil oladigan o'quvchilarning kayfiyatini ko'tarishi, shubhasiz. Tadbirning asosiy qismida ishtirok etish uchun faollar zaliga kirar ekanmiz, rang-barang o'rindiqlar ham ko'zimizni quvnatdi. Shunday qilib, vazirning yosh mutaxassislar bilan muloqoti boshlandi. Ochiq muloqotda yosh o'qituvchilar tizimida mavjud muammolar

bo'yicha savol bilan murojaat etdi. Jumladan, tumanidagi 8-umumta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi Erkaboy Jumaniyozov zamonaviy dargohlardagi sharoitlarga monand yangicha ta'lim berish uchun o'qituvchilarning ham tajribasini oshirish masalasini ilgari surdi. Barcha savol va takliflar bo'yicha fikr almashildi. So'ng tadbirda rejalashtirilgan ikkinchi masala bo'yicha, maz-

kur maktab rahbarligiga tavsiya etilgan nomzodlarning chiqishlari ko'rildi. Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan tanlangan nomzod maktab rahbari etib tayinlandi.

Yaqin kunlarda esa ushbu yangi ta'lim maskanida qo'ng'iroq sadolari yangrab, darslar boshlanadi. Biz esa havas qilsa arzigudek maktabda tahsil olajak tengdoshlaringiz bilan do'stlashish uchun bu dargohga yana tashrif buyurishni maqsad qildik.

S. QODIROVA

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Lesson 9


TELLING THE TIME

Asking the Time:

- What time is it?
- What is the time?
- Do you have the time?
- Do you know what time is it?
- Can you tell me what time is it?
- Dou you happen to have the time?
- Have you got the right time?
- What time do you make it?


Answering the questions:

- It is exactly/about/almost/just gone...
- Sure, it is 3:00
- Sorry, I am not wearing a watch.
- 2:30



- It is 4:20
- It is ten past ten.
- The time is 8 o'clock.

What time is it? Speak and write.



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

«TONG YULDUZI»DA HUQUQ DARSII



1948-yil 10-dekabrda Parij shahrida BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III) son qarori bilan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan.

Ushbi Deklaratsiya inson huquqlariga oid birinchi universal xalqaro hujjat hisoblanadi.

Mazkur hujjat muqaddima va 30 ta moddadan iborat bo'lib, unda insonning asosiy fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquq hamda erkinliklari belgilangan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi 1991-yil 30-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan.

1-modda. Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

3-modda. Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

4-modda. Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi.

7-modda. Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

N. NAZAROVA tayyorladi

Bahrom AKBAROV,
bolalar shoiri

ONAJONIM

Quyosh kabi
Nur jahonim.
Ra'no onam
Dono onam.

To'yamaymiz hech,
So'zingizga,
Mehrbalqqan
Ko'zingizga.

Bizni suyib
Erkalaysiz.
Ardoqlaysiz
Hech tinmaysiz.

Guldan go'zal
Oy yuzingiz.
Guldek yashnab
Yuringiz siz.

Onajonim
Mehribonim.
Ra'no onam
Dono onam.



Nabijon ERMAT,
bolalar shoiri

OSTONAMDA TURIBDI BAHOR

Qishning sovuq qahrin etib lol,
Illiq havo kelmoqda xushhol.
Bizni suyib so'rab hol-ahvol,
Ostonamda turibdi bahor.

Olamni kafti uzra tutib,
Tong quyoshin chiqishin kutib.
Kunning sovuq zahrini yutib,
Ostonamda turibdi bahor...

Borliq go'zal, guldan yoyib sep,
Bog'laringga berar ekan zeb.
Qani yurgin dalalarga deb,
Ostonamda turibdi bahor!..

HAVAS BOSIQDA

Bir kun tikkandim kashta,
Singlim qildi chin havas.
Qo'lga ignani olib,
«O'rgat», dedi bir nafas.

O'rgatmoqchi bo'lgandim,
Unga kashta tikishni.
Zerikib ketib qoldi,
Qiyin bildi bu ishni.

Iroda XOLBEKOVA,
Jizzax shahridagi Hamid
Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod
maktabining 9-sinf o'quvchisi

– Farhod, o'g'lim, bu yoqqa kel.
– Ayajon, akam ko'chaga chiqib ketuvdi.
– Ha, endi nima qildim-a? O'zing kel bo'lmasa,
buzoqni ushlab tur, qizim. Sigirmi sog'ib olay.
– Xo'p bo'ladi, ayajon.
Kech kirdi, quyosh tog'lar ortiga berkindi,
havoning avzoyi buzilib, sharros yomg'ir quyib
yubordi.

Sigirlarni sog'ib olishga arang
ulgurgan Gulsara
opa chelakni
ayvon ichka-
risidagi shiftga
qoqilgan katta
mixga ilib qo'ydi.
Shu payt Sho-
murod aka kirib
keldi.

– Onasi, ovqa-
ting tayyormi?
– Assalomu
alaykum, dadasi,
ishdan charcha-
may keldingizmi?
Ovqat tayyor...

Gulsara opa yu-
gurganacha osh-
xonaga kirib ketdi. Ne
ko'z bilan ko'rsinki,
olov o'chib, ovqat qaynovidan
to'xtab qolibdi. Opa u yoq-
dan bu yoqqa kuymalandi,
qayoqdandir quruq tezak
topdi. Ammo uning ham
yonishi qiyin bo'ldi.

Oshxonani tezak tutuni qopladi.
Ovqat tayyor bo'lib qolganda Shomurod
akani qo'shnikiga chaqirib ketishdi. Gulsara
opa dasturxon yozdi, ovqat suzdi, non ushatdi.
– Uf, qachon qarama, shunaqa ovqat, –
Farhod kosani «taq» etib dasturxoniga qo'ydi.
– Nima yeging kelayapti o'g'lim, ayt tayyor-
lab beraman.

Tashqarida yomg'ir chelaklab quymoqda.
Gulsara opa qo'shnikiga chiqib, bir bog' o'tin
so'rab oldi. Qo'shnilar saranjon-sarishta,

ularning hatto o'tinxonalari ham bor. Aksiga
olib, elektr ham o'chib qolsa bo'ladimi? Ovqat
pishguncha opa boshdan-oyoq jiqqa ho'l bo'ldi.
Taomni ko'tarib xonaga kirganida bolalari dong
qotib uxlab qolgandi. U farzandlarining ustini
yaxshilab o'rab qo'ydi.

Tong otdi. Yana quyosh porlab chiqdi. Har
kuni hammadan erta turadigan Gulsara opa
o'rnidan qo'zg'alolmadi. U
isitmalab yotardi.

– Ayangiz
yomg'irda
ham qolib ketibdi,
shekilli, shamol-
labdi. Dori yozib
berdim, – dedi
opani ko'rikdan
o'tkazgan shifokor.

Gulsara opaning
ahvoli kechgacha
ham yaxshilanma-
di. Ammo tinchgina
yotolmadi ham.
Bazo'r o'rnidan
turib, oshxonaga
yo'l oldi.

– Iye, nega o'r-
ningdan turding?! Kirib
yot, ovqatni o'zimiz qila-
miz, to'g'rimi, o'g'lim, – dedi
Shomurod aka Farhodga
yuzlanib.

– Ha, ayajon, o'zimiz qilamiz, –
Farhod shunday dedi-yu, kechagi qilib
qo'rgan ishidan ming-ming pushaymon bo'ldi.

– Ayajon, ayajon, meni kechiring... kecha
men tufayli yomg'ir ostida qoldingiz... mana,
oqibati...

Gulsara opa unsiz yig'layotgan o'g'lining
boshini siladi-da, mehri tovlanib:

– Mehribonginam, – deb shivirladi.

Lobar RO'ZIMUHAMMEDOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston
tumanidagi 7-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi

MEHRIBONGINAM

(Hikoya)



Konfutsiyning «Tinmay ilm olgan vijdonli in-
son, albatta, buyuk donishmandlik darajasiga
erishmog'i tayin», – degan so'zlarida jon bor.
Bilim olish uchun kishi tinimsiz o'qishi kerak.

Durdona bugun maktabdan xursand bo'lib
qaytdi. Negaki, u bir yo'la uchta fandan
besh baho olgandi. Otasining ishdan
qaytishini intiq bo'lib
kutdi. Otasi

kelgach, yu-
gurib unga
peshvoz
chiqdi-da,
kundaligida-
gi baholarni
ko'z-ko'z
qildi.

– Ota-
jon, ba-
holarim-

ga qarang, bugun uchta besh oldim. Endi olgan
baholarim uchun qancha pul to'laysiz?

Otasi qizining boshini silab dedi:

– Balli, ona qizim, doim mana shunday a'lo
baholarga o'qishingni istayman. Ammo a'lo
o'qishing uchun pul talab qilishning yaxshi emas.
Uyat bo'ladi! Negaki, bilim pulga sotilmaydi...

Men senga kerakli narsalaringni o'zim olib
beraman.

– Dugonam Dildora qancha ko'p a'lo baho
olsa, otasi unga shuncha ko'p pul berarkan.
Siz esa...

– Sen o'zi pulni nima
qilasan?

– Muzqaymoq,
shokolad olaman...

Otasi qizalog'ini
mehr bilan
bag'riga
b o s i b
dedi:

– May-
li qizim,
mana sen-
ga pul, lekin

bu pulga kitob sotib
olib, kitob javoningni

to'ldirsang, yaxshi bo'lardi.

Durdona otasining ushbu so'zlaridan o'z
xatosini anglab yetdi.

Umida SULAYMONOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti Harbiy
jurnalistika fakulteti talabasi



XATOSINI TUSHUNDI



BOSHIMDAGI DO'PPI TARIXI



Qadimdan eron va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan do'ppi Turkiston xalqlari orasida ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston hududida milliy kiyim turiga aylangan. Do'ppi boshni qishda sovuqdan, yozda esa jazirama quyosh nurlaridan asraydi.

Do'ppido'zlik amaliy san'atning keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, ayollar, erkaklar, bolalar milliy libosining ajralmas bo'lagini tashkil qiladi. San'atning bu turi hozirgi kunda avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Qadimdan erkaklar do'ppilarni qadrlashgan. Birovning do'ppisini boshidan tushirib yuborish juda qattiq haqoratlash bilan teng bo'lgan.

Dastlab, konussimon shakldagi keng gardishli do'ppilar kiyilgan bo'lsa, keyinchalik ularning shakli turli xil ya'ni uch qubballi, yarim sharsimon, yumaloq, to'rt qirrali ko'rinish kasb etgan. Ular asosan ipak, baxmal va boshqa

matolardan tikilib, bir xil tusdagi hoshiya bilan bezatilgan. Qadimgi do'ppilar o'zining rangi, chiziq-lari, ramziy belgilariga ko'ra hayot va mamot, yorug'lik va qorong'ulik, yer va osmon, ezgulik timsollarini o'zida mujassam etgan. Xalqimizda boshiga qush qo'ngan inson baxtli bo'ladi, degan gap bor. O'zbek



do'ppilarining ilk namunalari ham qushlarning tasviri ko'p uchraydi. Hoshiyadagi 16 ta gul tasviri esa insonlarning katta va ahil oilaga ega bo'lish tilagini ifodalagan.

Mohirlik bilan qo'lda tikilgan do'ppilar nafaqat bizning mamlakatimizda, hatto chet ellarda ham keng tarqalgan. O'zbek kashtachilari yaratgan

do'ppilar O'zbekiston muzeylar ko'rgazmasi bilan bir qatorda chet el muzeylari ekspozitsiyalarida ham borligi kishini quvontiradi.

Momolarimizning do'ppilarga e'tiborlari ayniqsa boshqacha. Ular sandiqlarini ochishadi-da, nabiralarga bobolari-yu otalari bolaligida kiygan do'ppilarni kiydirishadi va: «Aziz boshing omon bo'lsin», deya duo qiladilar.

Bizning milliy do'ppilarimiz ana shunday uzoq tarixga ega.

Aziza NARZULLAYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 4-ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi



FARZAND

TARBIYALAYOTGAN OILA

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 136-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan «Oila – jamiyat qo'rg'oni» mavzusidagi ota-onalar yig'ilishida ana shular haqida so'z bordi. Unda ota-onalar, ustozlar, mahalla faollari ishtirok etdi. Yig'ilish farzandga ism qo'yilishi, alla aytib, mehr bilan parvarishlanishi aks ettirilgan videorolik namoyishi bilan boshlandi.

Sahna ko'rinishidan so'ng 3-«A» sinfi rahbari, tadbir tashkilotchisi Mu-hayyo Kamolova yig'ilganlarga: «Bolaning yaxshi o'qishi uchun ota-ona qanday g'amxo'rlik ko'rsatishi kerak?» degan savol bilan murojaat qildi. Javoblar

Qadimdan oilada farzand tug'ilishi ota-onaga, yaqin qarindosh-urug'larga katta shodlik baxsh etgan. Chunki farzand ota-onaning quvonchi, umr mevasi, oila kelajagi, baxti. Uni tarbiyalash, o'qitish, biror kasb-hunar egasi bo'lishi uchun qayg'urish har bir ota-onaning burchidir. Xo'sh, maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning ota-onalari bu vazifalarni qay tarzda bajarishyapti?

tinglanib, ustoz tomonidan umumlashtirildi. Ota-ona bolaning o'qishi, yurish-turishiga befarq bo'lsa, uni nazoratsiz qoldirsa, bolada o'qishga qiziqish so'nadi. Bo'sh vaqtini bekorchi mashg'ulotlarga sarflaydi. Shuning uchun ota-ona farzandi bilan har

kuni muloqot qilishi, o'qigan, ko'rgan, kuzatgan voqea-hodisalari yuzasidan suhbatlashishi lozim.

Maktab psixologi Malika Zufarova ham ushbu sinf o'quvchilaridan «Bizning oila» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazdi.

Rasmlarni yig'ib olgach, undagi ranglar orqali bolaning ruhiy holatini aytib berdi. Moviy, yashil ranglardan foydalangan bolalar tarbiyalanayotgan oilada ijobiy muhit mavjudligini bildirdi.

Tadbirida so'zga chiqqan onaxonalar ko'pchilik yosh ota-onalar uyali telefonga bog'lanib qolishgani, hatto bolalarini ham telefon bilan ovuntirayotgani achinarli hol ekanligini ta'kidlashdi. O'tkazilgan tadbirning samarasi o'laroq, bolaga ta'sir etishning qaysi usulidan foydalanilmasin, bola shaxsiyatini hurmat qilish, uni rag'batlantirish zarur, degan to'xtamga kelindi.

Nodira NAZAROVA

Har bir maktabda bo'lgani kabi bizning ta'lim muassasamizda ham «BUVIJONIM KIYGAN LIBOSLAR» tanlovi qiziqarli o'tdi.



O'ziga xos tarzda tashkil etilgan ushbu tadbirga maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Maktuba Zokirova, MFY maslahatchisi Shirin Toshmuhammedova, maktabning xotin-qizlar qo'mitasi raisi Xadicha Karimova hamda «Qizlarjon» klubi rahbari Maftuna Ahmedova ishtirok etishdi. Dastlab, maktabimizning 8 – 9-sinf o'quvchi qizlari tomonidan milliy matolarimizdan tikilgan buvijonlarimoz va onalarimiz kiygan qadimiy liboslar, so'ngra maktabda, uyda, mehmondorchilikda va bayramlarda kiyiladigan zamonaviy liboslar namoyishi bo'lib o'tdi. «Qizlarjon» klubi a'zolari tomonidan o'z g'oyalari asosida tikilgan liboslar taqdimoti ham yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, Xadicha Karimova tomonidan slaydlar orqali turli millat vakillarining ayollariga xos bo'lgan liboslar ta'rifi tomoshabinlarga zavq ulashdi. Tadbir doirasida tumandagi faol xotin-qizlar bilan milliylikimizga, kiyinish madaniyatimizga oid mavzulardagi davra suhbatlari tashkil etildi.

Tanlovda faol qatnashgan qizlar turli nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandilar. Qizlar tomonidan tayyorlangan milliy kuy-qo'shiqlar, raqslar tadbirga o'zgacha fayz kiritdi.

Nafisa ISLOMOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 132-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

TOPISH MOQLAR

Yum-yumaloq shar emas,
Yoki qattiq tosh emas.
O'sgan joyi polizda
Uning nomi ...da



Ukam dup-dup qiladi,
Uni har kun uradi.
Shakli erur yumaloq,
Shoshilmasdan top o'rtoq.



Anhor labi dalada
Bahor yoz, kuzda o'sar.
Shifobaxsh hidi bor-da,
Uning yo'lin qish to'sar.



Tohirbek ABDUSATTOROV,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 42-umumta'lim
maktabining 7-«E» sinf o'quvchisi

BAHORIM, SENI SOG'INDIM

(Qatra)

Bahor! Bu so'zni eshitib qo'nglim daryodek to'liqlanib to'lib-toshadi. Bahor orzularimga qanot bag'ishlovchi, menga ilhom tuhfa etuvchi, yashashga bo'lgan intilish-ishtiyoqimni yanada oshiruvchi fasllarning kelinchagidir. Qish bilan yozning, oltin kuzning ham o'z tarovati, jozibasi bor. Ammo bahor hammasidan boshqacha. Yaratishtir, yangilanish bilan bog'liqligi bois g'oyatda suyumli, aziz va tansiq.

Qadrligim bahorim! Sahrodek armonlarimni bir tomchi yomg'ir suvi bilan yuvib tashladingmi, orzularim osmonidagi qora bulutlarni mayin epkinging ila tarqatib yuborishingni sog'indim. Bu yilgi bahorim, negadir barchani qattiq sog'intirib yubording. Qor ostidagi yashil mayalar yuragi, yer qa'rida turaverib, quyosh nurining iliqqligini kutaverib si-

qilib ket-gandek, nazarimda. Bodom kurtaklarining ham dugonasi to'yiga oshiqayotgan qizlardek joni xalok. Intizorlikdan ko'kka termilib charchagan. Bugun bulutlarni yorib, quyosh ko'rindi. Quyoshning kulib turishi go'yo yaxshilikning yomonlik, ezgulikning yovuzlik ustidan qozongan g'alabasiga o'xshaydi.

Ha, o'lkamizga Navro'zni yetaklab bahor keldi. Dov-daraxtlar, gul-chechaklar uyg'onishga chog'landi. Ko'klamimizning va Navro'zimizning qadami qutlug'. Ona yer bag'ridan unajak rizqimiz barakali bo'lsin...

Rayhona OBLOQULOVA,
Qashqadaryo viloyati, Koson
tumanidagi 3-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi

FOYDALI MASLAHATLAR

Aziz qizlarjon, bugun oshxonada asqotadigan foydali maslahatlarimiz bilan o'rtoqlashmoqchimiz, marhamat, ularni yon daftarchangizga yozib oling.

Yangi tova sotib olgan bo'lsangiz, uning ichiga bir miqdor sirka solib qaynatib yuboring, shunda pishirgan taomlaringiz tagiga yopishib qolmaydi.

Siqilgan limon po'choqlarini tashlab yuborishga shoshilmang, ularni qirg'ichdan o'tkazib, shakar bilan aralashtirib qo'ying. Bu aralashma uzoq saqlanadi va uni choyga qo'shib bimalol iste'mol qilishingiz mumkin.

Pechenylaringiz yumshab qolgan bo'lsa, ularni gaz duxovkasi-da qaytadan «qotirib» olishingiz mumkin.

NARGIZA tayyorladi

TOPSHIRIQLI LINVORD

Linvardni javoblarini topgandan so'ng, chizmaning ostki qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirish orqali muammonomani hal eting. Bunda ulardan sharq xalqlariga mansub hikmatlardan birini bilib olasiz.

Maqoldan: «Ustoz otadek ...».			Tojikiston Respublikasi janubidagi nurchilar shahri			Shiddatli, kuchli yog'in			Sotish uchun mamlakat bozoriga xorijdan tovar olib kirish				Torli milliy musiqa asbobi		Ko'chmanchi chorvadorlar manzilgohi		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15			
Andijon viloyatidagi nomdosh tuman va kanal						Zid, teskari so'zlari ma'nodoshi			Muhammad Yusuf she'ri: «Xalq bo'li, ...»				Portugaliya professional futbol klubi		Vayronalik keltiruvchi kuchli bo'ron		

SHARQ HIKMATI

**	**	5	8	9	5	8	**	8	15	9	**	1	11	1	2	8	3	8	**
**	**	**	6	7	10	6	4	,	**	1	15	1	2	15	8	5	**	**	**
**	**	9	7	14	4	6	8	3	8	**	12	7	11	4	13	8	.	**	**

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: 94-645-90-70



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom

Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 5736
Buyurtma - V 4088

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Toshirish vaqti - 18:00
Toshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08